Zoologiya institutiga ekspeditsiya mashinasi sovg`a qilindi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-yanvarda bo’lib o’tgan ilm-fanni rivojlantirish, olimlarning soha vazirliklari, ishlab chiqarish va xo’jalik birlashmalari ta’lim muassasalari bilan hamkorligini yangi sifat bosqichiga olib chiqish vazifasi belgilab berilgan edi.

Ilm-fandagi ishlanmalarni ishlab chiqarish korxonalari bilan birgalikda, faol integratsiya qilish, zamonaviy ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tezkor ravishda amaliyotga tadbiq etish, olimlar tomonidan yaratilgan ishlarni qo’llab quvvatlash, ichki maxsulot ko’lamini jahon talabiga mos ravishda ishlab chiqarish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Shu nuqtai nazardan O’zR FA Zoologiya instituti va O’rmon xo’jaligi davlat qo’mitasi xodimlari hamkorlikda ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib bormoqda, mamlakatimiz faunasi monitoringi borasida doimiy ilmiy safarlar tashkil etilmoqda.

Joriy yilning 28-dekabr kuni O’zbekiston Respublikasi O’rmonchilik xo’jalik davlat qo’mitasi raisi, N.J. Bakirov boshchiligida Zoologiya institutiga tashrif buyurib, ilmiy ekspeditsiyalarni olib borish uchun ko’mak sifasida Niva 4x4 rusumli avtoulovini Institut direktori B.R. Xolmatovga taqdim etdi.

Tadbirda O’zR FA vitse-prezidenti, akademik B.T. Ibragimov ilmiy amaliy hamkorlik doimo bo’lishini va yurtimiz ravnaqiga keng hissa qo’shishini ta’kidlashdi.